

INNOVATSION PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR VA CHET TIL O'QITISHDAGI ZAMONAVIY YONDASHUVLAR

Imamova Umida Muzafarovna

Termiz davlat universiteti, roman-german tillari kafedrası mudiri,

pedagogika fanlari falsafa doktori, dotsent

umida.imomova@mail.ru

<https://orcid.org/0009-0000-8183-5736>

UDC: 81 (81-132)

Annotatsiya. Bugungi kunda ta'lim tizimi jahon miqyosida keskin o'zgarishlar va yangilanishlar davrini boshdan kechirmoqda. Globallashuv, axborot texnologiyalarining tez sur'atda rivojlanishi, talabalarning o'quv ehtiyojlari va ta'limning raqobatbardoshligi zamonaviy pedagogika, tarjima va chet tillarini o'qitish usullariga innovatsion yondashuvlarni joriy etishni talab qilmoqda.

Kalit so'zlar: interaktiv metodlar, aniq va gumanitar fanlar, tajriba, tadqiqot, raqamlashtirish

XXI asr ta'limi nafaqat bilim berish, balki talabalarda mustaqil fikrlash, muammolarni hal qilish, ijtimoiy hamkorlik, axborotni tahlil qilish va hayotda qo'llash qobiliyatini rivojlantirishni ko'zlaydi. Bu maqsadlarga erishish uchun zamonaviy pedagogika an'anaviy yondashuvlarni inkor etmasdan, ularni innovatsion metodlar bilan boyitishni talab qiladi. Quyida zamonaviy pedagogikaning eng samarali innovatsion yondashuvlari tahlil qilinadi:

Konstruktivizm ta'limda talabani faol ishtirokchi sifatida ko'radi. Bu yondashuvga ko'ra, har bir talabada mavjud bilimlar bazasi bor va yangi bilimlar ushbu mavjud tajriba bilan bog'lanib, yangi ma'noga ega bo'ladi.

- **Prinsiplari:**

- Bilim — faol jarayon natijasidir.
- O'quvchi markaziy o'rinda turishi lozim.
- O'qituvchi — yo'l boshchi, maslahatchi sifatida faoliyat olib boradi.

- **Qo'llanilishi:** loyiha ishlari, keys-stadi, muammoga asoslangan o'qitish (PBL), tajriba va tadqiqot asosidagi o'qitish.

Interaktiv metodlar ham o'quv jarayonida talabalarning faolligini oshiradi, ularni muloqot, fikr almashish va jamoaviy qaror qabul qilish jarayoniga jalb qiladi. Masalan, "Aqliy hujum" (Brainstorming), "Klaster usuli", "Akvarium" usuli, "Muvozanat taxlili" (SWOT analiz) metodlari.

Afzalliklari qo'yidagilarda ko'rinadi: darsda faol ishtirokchilik, mustaqil va tanqidiy fikrlashni rivojlantiradi va har bir talabaning fikrini inobatga oladi. Ta'lim jarayonini raqamlashtirish — bugungi kunda ta'lim sifatini oshirishdagi muhim

omildir. Zamonaviy o'qituvchilar interaktiv doskalar, onlayn platformalar, test yaratish dasturlari, simulyatsiya dasturlari va boshqalardan foydalanish orqali darsni vizual va dinamik qilishlari mumkin va quyidagi platformalardan foydalaniladi:

Google Classroom, Zoom, Microsoft Teams, Kahoot, Quizizz, Mentimeter — interaktiv so'rov va testlar, Moodle — onlayn kurs platformasi. Masofaviy ta'lim olish imkoniyati, fikr almashishning yangi formalari va talabalarning AKT ko'nikmalarini rivojlantirish samaradorlikni yanada oshiradi.

Ta'limda "bir xil yondoshuv hammaga mos kelmaydi" degan qarash asosida, har bir talabaning bilimi, qobiliyati, qiziqishi va o'qish uslubiga qarab o'qitish usuli tanlanadi, ya'ni differensiallashtirilgan topshiriqlar, onlayn kurslar (Coursera, EdX kabi), ustoz-shogird tizimi orqali amalga oshiriladi. Talabaning shaxsiy rivojlanishiga xizmat qilishi va har bir talabaga mos yondashuv ta'minlanishi foydadan holi bo'lmaydi.

STEAM — bu Science (Fan), Technology (Texnologiya), Engineering (Muhandislik), Arts (San'at) va Mathematics (Matematika) sohalarining uyg'unlashgan holda o'qitishini nazarda tutadi. Bu yondashuv kreativ fikrlash, innovatsion g'oyalar yaratish va fanlararo bog'lanishlarni shakllantiradi.

Zamonaviy pedagogikaning innovatsion yondashuvlari ta'limni mazmunan boyitib, uni talabalar ehtiyojlariga moslashtirish imkonini beradi. Ana shunday yondashuvlar orqali ta'lim jarayoni samarali, interaktiv va natijaviy bo'ladi. O'qituvchi bu jarayonda faqat axborot beruvchi emas, balki ilhomlantiruvchi, maslahatchi va hamkorga aylanadi. Har bir o'quv muassasasi bu innovatsion yondashuvlarni o'z ta'lim amaliyotiga joriy etishga intilmog'i lozim.

Pedagogikadagi innovatsion metodlar ta'lim jarayonini interfaol, talabani markazga qo'ygan va natijaga yo'naltirilgan qilib qayta tashkil etishga xizmat qiladi. Ularning asosiy turlari quyidagilar:

- **Interaktiv ta'lim** — talabalar va o'qituvchilar o'rtasidagi muloqotni faollashtiradi. "Breynstorming", "klaster", "muvozanat taxlili" kabi usullar orqali o'quvchilar fikrlashga, tahlil qilishga va xulosa chiqarishga o'rgatiladi.
- **Kollaborativ o'qitish** — guruhda ishlash orqali ijtimoiy ko'nikmalar, muloqot va jamoaviy muammo yechish malakasini rivojlantiradi.
- **Masalaga asoslangan o'qitish (PBL)** — o'quvchilarni muammolarni hal qilish orqali bilim olishga undaydi.
- **STEAM yondashuvi** — fanlararo integratsiya asosida ta'lim oluvchilarning ilmiy, texnologik, muhandislik, san'at va matematika sohalaridagi bilimlarini uyg'unlashtiradi.

Tarjima ta'limida texnologiyalar va yangi metodlarni qo'llash talabalarning amaliy ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy tarjima metodlariga quyidagilar kiradi:

- **Kompyuter yordamidagi tarjima (CAT Tools)** — SDL Trados, MemoQ, Wordfast kabi dasturlar talabalarga real vaqtda tarjima qilish, terminologiya bazalarini yaratish va tahrirlash imkonini beradi.
- **Korpusli lingvistika** — korpuslar asosida tarjimada qaysi variantlar ko'proq ishlatilayotganini tahlil qilish orqali kontekstual to'g'ri tarjima malakasini shakllantiradi.
- **Onlayn hamkorlikda tarjima** — talabalar g'ugl hujjatlari yoki tarjima platformalari orqali jamoaviy ish yuritadi.
- **Simultatsiyalangan tarjima muhitlari** — voqeyi hayotga yaqin sharoitlarda tarjima mashqlari bajariladi.

Chet tillarini samarali o'rgatish uchun an'anaviy usullar bilan birga zamonaviy texnologiyalar va metodlardan keng foydalanish lozim. Eng keng tarqalgan innovatsion yondashuvlar:

- **Kamollashtirilgan kommunikativ yondashuv** — tilni o'rganishda gapirish, eshitish, o'qish va yozish ko'nikmalarini bir vaqtning o'zida rivojlantiradi.
- **Mobil va onlayn ta'lim platformalari** — Duolingo, Quizlet, Kahoot, BBC Learning English kabi platformalar orqali mustaqil o'rganish imkoniyati kengayadi.
- **Gamification (o'yinlashtirish)** — o'quv jarayonini qiziqarli va motivatsion qilish uchun o'yin elementlari joriy etiladi.
- **AR/VR texnologiyalari** — virtual reallikda til muhiti yaratilib, o'quvchilarni "sohibqiron" muhitda o'rgatish mumkin.
- **Task-based learning** — real hayotga bog'langan vazifalar orqali til o'rgatish talabalarning amaliyotga yaqin ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Hozirgi kunda pedagogika, tarjima va chet tillari bir-biridan ajralmas sohalarga aylanib bormoqda. Masalan, tarjimon uchun chet tilini mukammal bilish bilan birga, madaniyatshunoslik, axborot texnologiyalari va pedagogik metodlarni ham bilishi muhim. Shuning uchun:

- **Multidissiplinar o'quv dasturlari** yaratish;
- **Platformalar orqali interfaol darslarni tashkil qilish;**
- **Oliy ta'lim muassasalarida innovatsion laboratoriyalar ochish talab etiladi.**

Zamonaviy ta'lim tizimida pedagogika, tarjima va chet tillarini o'qitish sohalari innovatsion metodlarsiz rivojlanishi mumkin emas. Innovatsion yondashuvlar orqali o'quv jarayoni yanada samarali, mazmunli va talabalar ehtiyojlariga moslashgan holda tashkil etiladi. Ta'lim muassasalari bugungi kunda texnologiyalar, fanlararo yondashuvlar va ijodiy metodlarni faol joriy etishi zarur. Bu esa raqobatbardosh, kreativ va bilimdon avlodni tarbiyalashda muhim omil hisoblanadi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Abduraxmonov Q.X., Abdullayeva M.R. *Pedagogika nazariyasi va amaliyoti*. — Toshkent: "Fan va texnologiya", 2021.
2. Nazarova Sh.X. *Chet til o'qitish metodikasi*. — Toshkent: O'qituvchi, 2020.
3. Yuldoshev J.T. *Tarjima nazariyasi va amaliyoti*. — Toshkent: Iqtisod-moliya, 2022.
4. Richards, J. C., & Rodgers, T. S. (2014). *Approaches and Methods in Language Teaching* (3rd ed.). Cambridge University Press.
5. Bell, R. T. (1991). *Translation and Translating: Theory and Practice*. Longman.
6. Larsen-Freeman, D. & Anderson, M. (2011). *Techniques and Principles in Language Teaching* (3rd ed.). Oxford University Press.
7. Krashen, S. D. (1982). *Principles and Practice in Second Language Acquisition*. Pergamon.
8. Mishra, S. (2005). *Technology for Language Learning: An Overview*. ICTE Journal.
9. Bax, S. (2003). *CALL — Past, Present and Future*. System, 31(1), 13–28.
10. Kolesnikova I. K., Alekseev A. P. *Osnovy teorii perevoda*. — Moskva: Flinta, 2018.
11. Brown, H. D. (2007). *Teaching by Principles: An Interactive Approach to Language Pedagogy* (3rd ed.). Pearson Education.
12. Minbayeva J. *Interaktiv ta'lim metodlarining nazariy va amaliy asoslari*. — Toshkent, 2019.